TALABALARDA YOLG‘IZLIK VA UMIDSIZLIKNING SUITSIDAL XAVF VA DINIY YO‘NALGANLIK BILAN ALOQADORLIGI

Sh.Eshqulov[1]

1. Guliston davlat universiteti doktaranti

Mas'ul muallif: Eshqulov Shavkat, Guliston davlat universiteti doktaranti.

e-mail: Eshqulovshavkat.96@gamil.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Eshqulov, S. TALABALARDA YOLG‘IZLIK VA UMIDSIZLIKNING SUITSIDAL XAVF VA DINIY YO‘NALGANLIK BILAN ALOQADORLIGI / S. Eshqulov // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 50–53.

Annotatsiya. Maqolada talabalarda yolg‘izlik hissi va umidsizlikning suitsidal xavf hamda diniy yo‘nalganlik bilan aloqadorligi yoritilgan. Umidsizlik kelajakka ishonchsizlik va hayotni saqlashga undovchi ichki to‘siqlarning zaiflashuvi bilan, yolg‘izlik esa e’tiborni jalb qilishga intilish va o‘zini qadrsiz his qilish bilan bog‘liq ekani ko‘rsatilgan. Ichki diniy e’tiqod umidsizlikni biroz kamaytirsa-da, yolg‘izlik kechinmasini bartaraf etmasligi aniqlangan. Natijalar asosida suitsidal xulq profilaktikasi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yolg‘izlik, umidsizlik, suitsidal xavf, antisuitsidal omil, ichki va tashqi diniy yo‘nalganlik, talabalar.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ОДИНОЧЕСТВА И БЕЗНАДЁЖНОСТИ С СУИЦИДАЛЬНЫМ РИСКОМ И РЕЛИГИОЗНОЙ НАПРАВЛЕННОСТЬЮ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматривается связь одиночества и безнадёжности с суицидальным риском и религиозной ориентацией студентов. Показано, что безнадёжность связана с неверием в будущее и ослаблением внутренних барьеров, удерживающих от суицида, а одиночество со стремлением привлечь внимание и ощущением собственной несостоятельности. Внутренняя религиозность несколько снижает безнадёжность, но не устраняет переживание одиночества. На основе результатов даны рекомендации по профилактике суицидального поведения.

Ключевые слова: одиночество, безнадёжность, суицидальный риск, антисуицидальный фактор, внутренняя и внешняя религиозная ориентация, студенты.

THE RELATIONSHIP OF LONELINESS AND HOPELESSNESS WITH SUICIDAL RISK AND RELIGIOUS ORIENTATION AMONG STUDENTS

Abstract. The article examines how loneliness and hopelessness relate to suicidal risk and religious orientation in university students. Hopelessness is shown to be linked to distrust in the future and weakened inner barriers against suicide, while loneliness is linked to attention-seeking and a sense of personal failure. Intrinsic religiousness slightly reduces hopelessness but does not remove the experience of loneliness. Recommendations for suicide prevention are offered on the basis of the findings.

Keywords: loneliness, hopelessness, suicidal risk, anti-suicidal factor, intrinsic and extrinsic religious orientation, students.

Kirish. Suitsidal xulq-atvorni shaxs psixologiyasi nuqtai nazaridan o‘rganish uning tashqi sabablarini emas, balki bu sabablar qanday ichki shart-sharoitlar orqali ta’sir ko‘rsatishini aniqlashni talab qiladi. S.L. Rubinshteynning determinizm tamoyiliga ko‘ra, tashqi ta’sir shaxsning ichki shart-sharoitlari orqali sinib o‘tadi [4]. O‘zbekistonda suitsidal xulq bo‘yicha bajarilgan so‘nggi tadqiqotlarda o‘smirlar [1; 2] va ayollar [3] misolida ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan, biroq oliy ta’lim muassasalari talabalarida yolg‘izlik va umidsizlik kabi kechinmalarning suitsidal xavf tuzilmasidagi o‘rni hamda ularning diniy yo‘nalganlik bilan aloqasi maxsus o‘rganilmagan.

Umidsizlik suitsidologiyada eng ko‘p o‘rganilgan kognitiv omillardan biridir. A. Bek uni shaxsning o‘z kelajagiga nisbatan barqaror salbiy kutilmalar tizimi sifatida ta’riflagan [10]. Suitsidal fikrlar sababli kasalxonaga yotqizilgan bemorlarni o‘n yil davomida kuzatgan prospektiv tadqiqotda umidsizlik shkalasi keyinchalik sodir etilgan suitsidni oldindan ko‘rsatgan [9]. Zamonaviy “uch bosqichli” nazariyada suitsidal fikr ruhiy og‘riq umidsizlik bilan qo‘shilganda paydo bo‘lishi, boshqalar bilan bog‘liqlik esa bu jarayonni to‘xtatuvchi asosiy omil ekani ta’kidlanadi [15].

Yolg‘izlik hissi suitsidal xulqning shaxslararo determinanti sifatida qaraladi. E. Dyurkgeym suitsidni ijtimoiy integratsiyaning zaiflashuvi bilan bog‘lagan bo‘lsa [11], T. Joynerning shaxslararo nazariyasida mansublik ehtiyojining qondirilmasligi va o‘zini boshqalar uchun yuk deb his qilish suitsidal istakning ikki asosiy manbai sifatida ko‘rsatiladi [14; 20]. Bu yondashuvda yolg‘izlik odamlar orasida bo‘lmaslik emas, balki shaxsning o‘z munosabatlaridan qoniqmasligidir; D. Rassel va hammualliflarining shkalasi aynan shu subyektiv kechinmani o‘lchaydi [17].

Diniy e'tiqodning suitsidga qarshi himoya ta'siri ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan, ammo bu ta'sir e'tiqodning shaxs tuzilmasidagi o'rniga bog'liq [12; 16]. G. Olport va J. Ross ichki diniy yo'nalganlikni, ya'ni dinni hayotning asosiy mazmuni sifatida qabul qilishni, tashqi yo'nalganlikdan, ya'ni dindan xavfsizlik, tasalli va ijtimoiy mavqe uchun foydalanishdan farqlagan [8]. Diniylik va depressiv simptomlar o'rtasidagi bog'liqlik meta-tahlilda manfiy, lekin kuchsiz bo'lib, uning kuchi hayotiy stress mavjudligida ortgan [18].

Tadqiqotning maqsadi talabalarda yolg'izlik hissi va umidsizlikning suitsidal xavf tarkibiy qismlari hamda ichki va tashqi diniy yo'nalganlik bilan aloqadorligini aniqlashdan iborat. Quyidagi farazlar tekshirildi: yolg'izlik va umidsizlik suitsidal xavf shkalalari bilan musbat, antisuitsidal omil bilan manfiy bog'langan; ichki diniy yo'nalganlik ikkala ko'rsatkich bilan manfiy, tashqi yo'nalganlik esa musbat bog'langan.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqotda Guliston davlat universiteti (182 nafar, 51,0 %) va Farg'ona davlat universitetining (175 nafar, 49,0 %) kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida tahsil olayotgan 357 nafar talaba ishtirok etdi; ulardan 206 nafari (57,7 %) erkak, 151 nafari (42,3 %) ayol. So'rov guruh shaklida, ixtiyoriy va anonim tarzda o'tkazildi. Tanlanma klinik bo'lmagani sababli suitsidal xavf shaxsiy-psixologik moyillik sifatida baholandi.

Subyektiv yolg'izlik hissi D. Rassel, L. Peplo va M. Fergyuson tomonidan ishlab chiqilgan UCLA yolg'izlik shkalasining rus tilidagi moslashtirilgan varianti orqali o'lchandi [6; 17]. Shkala 20 ta tasdiqdan iborat, umumiy ball 0 dan 60 gacha o'zgaradi. Umidsizlik A. Bek va hammualliflarining 20 ta "to'g'ri – noto'g'ri" tasdiqdan iborat shkalasi bilan aniqlandi, umumiy ball 0 dan 20 gacha [10]. Suitsidal xavf T.N. Razuvayeva modifikatsiyasidagi 29 bandli so'rovnoma yordamida baholandi [6]; u namoyishkorlik, affektivlik, noyoblik, muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy pessimizm, madaniy to'siqlarning yemirilishi, maksimalizm, vaqt istiqboli shkalalarini va himoya vazifasini bajaruvchi antisuitsidal omilni o'z ichiga oladi. Diniy yo'nalganlik G. Olport va J. Ross konsepsiyasiga asoslangan, muallif tomonidan tuzilgan so'rovnomaning ichki va tashqi diniy motivatsiya qismi orqali o'lchandi [8].

Ma'lumotlar SPSS Statistics 22.0 dasturida qayta ishlandi. Kolmogorov–Smirnov mezoni barcha shkalalar bo'yicha taqsimotning normal taqsimotdan farq qilishini ko'rsatgani uchun noparametrik mezonlar qo'llanildi [5]. O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik Spirmen rang korrelyatsiya koeffitsiyenti (ρ) bilan aniqlandi [19]. Koeffitsiyentning mutlaq qiymati 0,3 dan past bo'lsa bog'liqlik kuchsiz, 0,3–0,7 bo'lsa o'rta deb baholandi [5]; ahamiyatlilik chegarasi $p < 0,05$, unga yaqin koeffitsiyentlar tendensiya sifatida talqin qilindi.

Natijalar

Yolg'izlik va umidsizlikning suitsidal xavf shkalalari hamda diniy yo'nalganlik bilan korrelyatsiyasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yolg'izlik hissi va umidsizlikning suitsidal xavf shkalalari va diniy yo'nalganlik bilan korrelyatsiyasi (Spirmen ρ, N = 357)

Ko'rsatkich	Umidsizlik (A. Bek)	Yolg'izlik hissi (D. Rassel, M. Fergyuson)
Namoyishkorlik	−0,101*	0,153**
Affektivlik	−0,055	0,060
Noyoblik	0,080	−0,047
Muvaffaqiyatsizlik	−0,047	0,106*
Ijtimoiy pessimism	0,002	0,049
Madaniy to'siqlarning yemirilishi	−0,027	−0,042
Maksimalizm	0,021	−0,029
Vaqt istiqboli	0,122*	0,031
Antisuitsidal omil	−0,118*	0,052
Ichki diniy yo'nalganlik	−0,103*	0,109*
Tashqi diniy yo'nalganlik	0,081	−0,093

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$. Birinchi to'qqiz qator T.N. Razuvayeva so'rovnomasi shkalalari.

Umidsizlik vaqt istiqboli shkalasi bilan musbat ($\rho = 0,122$; $p < 0,05$), antisuitsidal omil bilan manfiy ($\rho = −0,118$; $p < 0,05$) bog'langan. Namoyishkorlik bilan manfiy bog'liqlik ($\rho = −0,101$) ahamiyatlilik chegarasida. Yolg'izlik hissi namoyishkorlik ($\rho = 0,153$; $p < 0,01$) va muvaffaqiyatsizlik ($\rho = 0,106$; $p < 0,05$) shkalalari bilan musbat bog'langan, antisuitsidal omil ($\rho = 0,052$) va boshqa shkalalar bilan bog'liqlik aniqlanmagan. Barcha ahamiyatli koeffitsiyentlar 0,3 dan past, ya'ni bog'liqliklar kuchsiz.

Diniy yo'nalganlik bilan bog'liqliklar ham kuchsiz. Ichki diniy yo'nalganlik umidsizlik bilan manfiy ($\rho = −0,103$), yolg'izlik hissi bilan esa musbat ($\rho = 0,109$; $p < 0,05$) bog'langan. Tashqi diniy yo'nalganlik ikkala ko'rsatkich bilan ham ahamiyatli bog'lanmagan ($\rho = 0,081$ va $\rho = −0,093$).

Muhokama

Olingan natijalar birinchi farazni qisman tasdiqlaydi. Umidsizlik va yolg'izlik suitsidal xavfning ayrim komponentlari bilan kutilgan yo'nalishda bog'langan, ammo bu bog'liqliklar kuchsiz va to'qqiz shkaladan faqat ikki-uchtasini qamraydi.

Bu natija ellik yillik tadqiqotlarni umumlashtirgan meta-tahlil xulosasiga mos keladi: umidsizlik ham, ijtimoiy omillar ham alohida olinganda suitsidal fikr va xulqning kuchsiz prediktorlari bo‘lib chiqqan [13]. Bundan tashqari, Razuvayeva so‘rovnomasi shaxsning barqaror qadriyat va xulq xususiyatlarini, Bek va Rassel shkalalari esa joriy kechinmalarni o‘lchaydi.

Umidsizlikning vaqt istiqboli bilan musbat bog‘liqligi uning mohiyatiga mos: kelajakda yaxshilik kutmaydigan inson uni rejalashtirishga ham intilmaydi, istiqbolning torayishi esa salbiy kutilmalarni mustahkamlaydi. Yaqinlar oldidagi mas’uliyat va hayotni saqlash haqidagi ishonchlar ham kelajakka yo‘naltirilgan, shu sababli kelajakka ishonch yo‘qolganda antisuitsidal omil zaiflashadi. Umidsizlikning ijtimoiy pessimizm va salbiy “Men”-konsepsiya bilan bog‘lanmagani esa talabalarda kelajakka ishonchsizlik hali dunyoga nisbatan umumiy salbiy qarashga ham, o‘zini qobiliyatsiz deb baholashga ham aylanmaganini ko‘rsatadi. A. Bek qarashlariga ko‘ra, umidsizlik salbiy o‘z-o‘zini baholash bilan qo‘shilganda xavf og‘irlashadi [10]; talabalarda bunday birikmaning kuzatilmagani xavfning nisbatan yengil darajada ekanini anglatadi.

Yolg‘izlikning namoyishkorlik bilan bog‘liqligi shuni ko‘rsatadiki, emotsional yaqinlik ehtiyoji qondirilmagan talaba bu bo‘shliqni atrofdagilar e’tiborini jalb qilish orqali to‘ldirishga intiladi. Bu yordam so‘rashning o‘ziga xos shakli bo‘lib, uzoq davom etsa namoyishkorona suitsidal reaksiyaga zamin yaratishi mumkin. Yolg‘izlikning muvaffaqiyatsizlik shkalasi bilan bog‘liqligi esa shaxslararo nazariyadagi o‘zini boshqalar uchun yuk deb his qilish tushunchasiga yaqin turadi [20]: yolg‘iz inson ijtimoiy aloqalarning yetishmasligini o‘zidagi kamchilik bilan izohlashga moyil bo‘ladi. Yolg‘izlikning antisuitsidal omil bilan bog‘lanmagani yolg‘iz talabada himoya omillari hali saqlanib qolganini bildiradi, biroq mansublik ehtiyojining uzoq vaqt qondirilmasligi bu vaziyatni o‘zgartirishi mumkin [14].

Olingan natijalarning muhim jihati shundaki, umidsizlik va yolg‘izlik suitsidal xavfning turli komponentlari bilan bog‘langan va ular o‘rtasida umumiy bog‘liqlik zonasi deyarli yo‘q. Umidsizlik kelajak istiqboli va antisuitsidal omil bilan, ya’ni xavfning kognitiv-motivatsion tomoni bilan, yolg‘izlik esa namoyishkorlik va salbiy “Men”-konsepsiya bilan, ya’ni uning shaxslararo va o‘z-o‘zini baholash tomoni bilan aloqador. Bu natijani uch bosqichli nazariya nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin: suitsidal fikr shakllanishida umidsizlik va boshqalar bilan bog‘liqlikning yo‘qligi ikki mustaqil bo‘g‘in sifatida ishtirok etadi [15]. Umidsizlik shaxsni kelajakdan, yolg‘izlik esa hozirgi munosabatlardan tayanch topa olmaydigan holatga keltiradi; ikkalasi bir shaxsda birikkanda, ya’ni inson na kelajakka ishonmasa, na yaqinlaridan qo‘llab-quvvatlash his qilsa, suitsidal xavf sezilarli darajada oshishi kutiladi. Bizning tanlanmada bu ikki ko‘rsatkich alohida-alohida kuchsiz ta’sir ko‘rsatgani talabalarda bunday birikma hali keng tarqalmaganini va profilaktika uchun qulay vaziyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi faraz faqat umidsizlikka nisbatan tendensiya darajasida tasdiqlandi. Ichki diniy yo‘nalganlikning umidsizlik bilan manfiy bog‘liqligi V. Franklning umidsizlik asosida hayot mazmunining yo‘qolishi yotishi haqidagi g‘oyasiga mos keladi [7]: e’tiqod shaxsning ichki qadriyatiga aylangan sari qiyinchilik ma’noli sinov sifatida qayta baholanadi. Bog‘liqlikning kuchsizligi diniylik va depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha meta-tahlil natijalari bilan uyg‘un [18]. Ichki yo‘nalganlikning yolg‘izlik bilan musbat bog‘liqligi esa farazga zid. Uni quyidagicha izohlash mumkin: e’tiqod me’yorlariga qat’iy amal qiluvchi talabaning qadriyatlari va qiziqishlari tengdoshlarinikidan farq qilib, uni o‘zini tushunilmagan his qilishga olib kelishi mumkin; shu bilan birga yolg‘izlik kechinmasi insonni o‘z e’tiqodiga chuqurroq suyanishga undashi ham ehtimoldan xoli emas. Har ikki holatda ham natija ichki e’tiqod ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘rnini bosa olmasligini ko‘rsatadi; dinning himoya ta’siri ko‘p jihatdan jamoa bilan aloqa orqali amalga oshishini ta’kidlovchi qarashlar ham shuni tasdiqlaydi [11; 16].

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Kesimli dizayn bog‘liqliklarni sababiy ta’sir sifatida talqin qilishga imkon bermaydi, tanlanma ikki universitet talabalaridan iborat, korrelyatsiyalarning bir qismi esa ahamiyatlilik chegarasiga yaqin bo‘lib, ular takroriy tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

Amaliy jihatdan natijalar talabalar bilan olib boriladigan profilaktik ishda ikki yo‘nalishni ajratish zarurligini ko‘rsatadi. Yolg‘izlik hissi yuqori talabalar bilan ishlashda emotsional yaqinlik va ijtimoiy aloqalarni kengaytirish, kechinmalarni so‘z bilan ifodalash va yordam so‘rash ko‘nikmalarini rivojlantirish, umidsizlik yuqori talabalar bilan ishlashda esa umidsizlik va salbiy kutilmalarni kognitiv jihatdan qayta qurish, kelajak istiqbolini rejalashtirish va hayotiy vaziyat ustidan nazorat hissini mustahkamlash birinchi o‘rinda turadi. Ichki diniy e’tiqod bu ishda qo‘shimcha resurs bo‘lishi mumkin, biroq u ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rnini bosmaydi.

Xulosa. Talabalarda yolg‘izlik hissi va umidsizlik suitsidal xavfning muayyan komponentlari bilan kuchsiz, ammo psixologik jihatdan izchil bog‘langan: umidsizlik kelajak istiqbolining torayishi va antisuitsidal omilning pasayishi bilan, yolg‘izlik esa namoyishkorona xulq va salbiy “Men”-konsepsiya bilan aloqador. Bu ikki ko‘rsatkich suitsidal xavfning turli komponentlari bilan bog‘langan, ya’ni ular xavfning kognitiv va shaxslararo manbalarini aks ettiruvchi nisbatan mustaqil determinantlardir. Ichki diniy yo‘nalganlik umidsizlikning biroz pastligi bilan bog‘liq, lekin yolg‘izlik kechinmasini bartaraf etmaydi, tashqi diniy yo‘nalganlik esa bu ikki ko‘rsatkich bilan bog‘lanmagan. Natijalar talabalar orasida suitsidal xulq profilaktikasini umidsizlik va yolg‘izlikka alohida yo‘naltirilgan hamda diniy yo‘nalganlik shaklini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Qarshiboyeva G.A. O‘smirlik yoshi davrida suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2022. – 58 b.

[2] Sultanova A.A. O‘smir o‘z joniga qasd qilishining gender xususiyatlari: psixol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2024. – 47 b.

[3] Xaydarova X.G. Konformlilik va shaxs aksentuatsiyasi – ayollar suitsidal xulqiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar: psixol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMPU, 2026. – 54 b.

[4] Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. – М.: Изд-во АН СССР, 1957. – 328 с.

[5] Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. – СПб.: Речь, 2003. – 350 с.

[6] Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М.: Изд-во Института Психотерапии, 2002. – 490 с.

[7] Франкл В. Человек в поисках смысла: сборник / пер. с англ. и нем. – М.: Прогресс, 1990. – 368 с.

[8] Allport G.W., Ross J.M. Personal religious orientation and prejudice // Journal of Personality and Social Psychology. – 1967. – Vol. 5, № 4. – P. 432–443.

[9] Beck A.T., Steer R.A., Kovacs M., Garrison B. Hopelessness and eventual suicide: a 10-year prospective study of patients hospitalized with suicidal ideation // American Journal of Psychiatry. – 1985. – Vol. 142, № 5. – P. 559–563.

[10] Beck A.T., Weissman A., Lester D., Trexler L. The measurement of pessimism: the Hopelessness Scale // Journal of Consulting and Clinical Psychology. – 1974. – Vol. 42, № 6. – P. 861–865.

[11] Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology / transl. J.A. Spaulding, G. Simpson. – Glencoe, IL: The Free Press, 1951. – 405 p.

[12] Eskin M., Baydar N., El-Nayal M., Asad N., Noor I.M., Rezaeian M., Abdel-Khalek A.M. [et al.] Associations of religiosity, attitudes towards suicide and religious coping with suicidal ideation and suicide attempts in 11 Muslim countries // Social Science & Medicine. – 2020. – Vol. 265. – Article 113390.

[13] Franklin J.C., Ribeiro J.D., Fox K.R., Bentley K.H., Kleiman E.M., Huang X., Musacchio K.M., Jaroszewski A.C., Chang B.P., Nock M.K. Risk factors for suicidal thoughts and behaviors: a meta-analysis of 50 years of research // Psychological Bulletin. – 2017. – Vol. 143, № 2. – P. 187–232.

[14] Joiner T.E. Why People Die by Suicide. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2005. – 288 p.

[15] Klonsky E.D., May A.M. The three-step theory (3ST): a new theory of suicide rooted in the "ideation-to-action" framework // International Journal of Cognitive Therapy. – 2015. – Vol. 8, № 2. – P. 114–129.

[16] Lawrence R.E., Oquendo M.A., Stanley B. Religion and suicide risk: a systematic review // Archives of Suicide Research. – 2016. – Vol. 20, № 1. – P. 1–21.

[17] Russell D., Peplau L.A., Ferguson M.L. Developing a measure of loneliness // Journal of Personality Assessment. – 1978. – Vol. 42, № 3. – P. 290–294.

[18] Smith T.B., McCullough M.E., Poll J. Religiousness and depression: evidence for a main effect and the moderating influence of stressful life events // Psychological Bulletin. – 2003. – Vol. 129, № 4. – P. 614–636.

[19] Spearman C. The proof and measurement of association between two things // American Journal of Psychology. – 1904. – Vol. 15, № 1. – P. 72–101.

[20] Van Orden K.A., Witte T.K., Cukrowicz K.C., Braithwaite S.R., Selby E.A., Joiner T.E. The interpersonal theory of suicide // Psychological Review. – 2010. – Vol. 117, № 2. – P. 575–600.